

**ANTONIMLIK VA DARAJALANISHNING O'ZIGA XOS
XUSUSIYATLARI**

To'xtayeva Dilafroz Ashurovna

BuxDU O'zbek tilshunosligi va jurnalistika

kafedrasi o'qituvchisi

Elektron pochta: dilafruztukhtayeva1988@gmail.com

Anotatsiya: Tadqiqotchilar antonimiya tushunchasini olimlar tomonidan har doim ham aniq chegara qo'yib bo'lmaydigan "qarama-qarshilik" tushunchasi bilan bog'lashadi: "Qarama-qarshilik – bu asos belgisi bilan ajralib turadigan ikkilik, bir mohiyatning chegaragacha rivojlangan farqli xususiyati". Falsafiy jihatdan qarama-qarshilik ziddiyatning tarkibiy qismi hisoblanib, antonimiya, antisemiya, enantiosemiya munosabatlarini o'z ichiga oladi va darajalanishdan alohida hodisa hisoblanadi.

Kalit so'zlar: antonimlik, darajalanish, antonimiya, antisemiya, enantiosemiya, kontrar qarama-qarshilik, komplementar qarama-qarshilik, kontekstual antonimiya.

Bir qator ilmiy ishlarda nutqdagi muayyan kommunikativ-kognitiv vazifadagi har qanday farq teskarisiga aylanishi mumkinligi haqidagi fikrlar bildirilgan. Masalan, V.A.Mixaylov antonimiyani: "Tilda tasniflanish jarayoni va qarama-qarshilik tamoyilini belgilovchi operativ tuzilma" deb hisoblaydi¹ va unga quyidagi ta'rifni shakllantiradi: "Antonimiya – bu ma'lum antonim so'zlarning immanent va berilgan xossasi emas, balki umuman til tizimining xususiyati bo'lib, u muayyan nutq sharoitida ma'lum holatlarda amalga oshiriladi va boshqalarida neytrallanadi". Grammatik antonimiyani uning barcha darajalarida, shu jumladan, sintaksisda ham tan olgan N.B. Boyeva shunday xulosaga keladi: "Antonimlar

¹ Михайлов, В. А. Генезис антонимических оппозиций : (Антонимия и отрицание) [Текст] : учеб. пособие / В. А. Михайлов ; ЛГУ им. А. А. Жданова. – Л. : ЛГУ, 1987. – 79 с.
www.tadqiqotlar.uz

obyektiv voqelikning o'zaro qarama-qarshi muhim jihatlarini belgilashga xizmat qiladi va bu obyektiv ziddik xususiyatlari antonimlarda aks etadi"².

Antonimlarni paradigmatic munosabatlarning amalga oshirilishidan biri sifatida ko'rib, olimlar antonimik paradigmaga quyidagi ta'riflarni beradilar: M.L.Kusova antonimik paradigma haqida gapirar ekan, quyidagilarni yozadi: "A'zolari bir xil semantik komponentlar bilan qarama-qarshi qo'yilgan antonimik qarama-qarshiliklar to'plami"³. E.A. Borovich antonimik paradigmni leksik qarama-qarshilikni tashkil etishning boshlang'ich bo'g'ini deb hisoblaydi va quyidagi ta'rifni shakllantiradi: "Bu ma'lum bir kontekstdagi qarama-qarshilik munosabatini ifodalovchi til birliklarining semantik va grammatik xususiyatlari yig'indisidir"⁴. E.I.Dibrovaning fikricha, antonimik paradigma "qarama-qarshi ma'noli so'zlarning birikmasidir. Ularning semantik munosabati umumiy integral xususiyat (yoki xususiyatlar) va qarama-qarshi ma'nolarni o'z ichiga olgan differensial xususiyat (yoki xususiyatlar)ga asoslanadi"⁵.

Antonimik sinonimik qatorga kiruvchi sememalar umumiy semantik yadroga ega bo'lib, til tizimidagi umumiy semantik makonda (LSG) ishlaydi, lekin bosqichma-bosqich semantik xususiyatning qarama-qarshi namoyon bo'lish darajalarini ifodalaydi, bu esa "sinonimik qator antonimiyasi yoki antonimik qarama-qarshilik sinonimiyasi" haqida gapirishga imkon beradi.

N.V.Prekina⁶ antitezani maqollarda darajalanishni shakllantiruvchi vosita sifatida sanab o'tadi. Shundan kelib chiqib, maqollarda antonimlikni hosil qiluvchi lug'aviy birliklarni ham darajalanish doirasiga kiritadi.

O.Bozorov o'z tadqiqotida antonimiya va graduonimiya

² Боева, Н. Б. Грамматическая антонимия в современном английском языке [Текст] : дис. ... д-ра филол. наук / Н. Б. Боева. – М., 2001. – 366 с.

³ Кусова, М. Л. Семантические модели глагольной антонимии [Текст] / М. Л. Кусова // Лексическая семантика : сб. науч. статей. – Екатеринбург : УГПИУ, 1991. – С. 55

⁴ Боровых, Е. А. Антонимическая парадигма в русских и английских поговорках : структурно-семантический и культурологический аспекты [Текст] : автореф. дис. ... канд. филол. наук / Е. А. Боровых. – Челябинск, 2007. – 9 с.

⁵ Диброва, Е. И. Современный русский язык : теория, анализ языковых единиц [Текст] : учебник : в 2 ч. Ч. 1 / Е. И. Диброва. – 2-е изд. – М. : Академия, 2006. – 223 с.

⁶ Прекина Н. В. Градуальная семантика русских пословиц [Электронный ресурс]: Дис. ... канд. филол. наук : 10.02.01.-М.: РГБ, 2006, 169 с.

munosabatlariga to'xtalib ko'p hollarda antonimiya graduonimiya asosida shakllanishini, shu sabab graduonimiya bilan antonimiyani sifat jihatdan boshqa-boshqa hodisalar sifatida bir-biriga qarshi qo'yib bo'lmashligini qayd etadi. "Aslida, graduonimiya semantik darajalanishlarga asoslangan bir umumiy yo'nalishli qator (zanjir) bo'lsa, antonimiya shu zanjirning (qatorning) turli qismlari (a'zolari) orasidagi semantik farqlanuvchanlik-zidlanuvchanlik munosabatlaridir. Bundan shu narsa ko'rinib turibdiki, antonimiya tushunchasi doim juftlikka nisbatan, graduonimiya esa juftliliklar tizimi bo'lgan qatorga nisbatan ishlatiladi"⁷. Olim fikrini davom ettirib, antonim tushunchasi farqlovlikka, graduonim atamasi orqali esa shu farqlovchanliklarning ma'lum belgi miqdorining oshishi yoki kamayishi orqali shakllanishiga urg'u beradi.

Ra'no Sayfullayeva va b.lar hammuallifligidagi oliy o'quv yurtlari talabalari uchun mo'ljallangan darslikda a'zolari orasidagi munosabatga ko'ra ziddiyatning quyidagi ko'rinishlari keltirilgan: 1) darajali (gradual) ziddiyat *[ninni]-[chaqaloq]-[go'dak]-[bola]...*; *[turq]-[bashara]-[bet]-[yuz]-[chehra]*⁸...; 2) noto'liq ziddiyat *[bola]* va *[o'g'il]*⁹; 3) muntazam (proporsional) ziddiyat "jins" belgisiga ko'ra farqlanuvchi so'zlar *[ota]-[ona]*, *[aka]-[opa]*, *[singil]-[uka]*, *[tog'a]-[xola]*¹⁰. Demak, lisoniy ziddiyat keng qamrovga ega hodisa bo'lib, uning tarkibiga teskari ma'no ifodalashdan tashqari farqlilik, *darajalanish* kabilar ham kiradi. Yana darslik muallifi antonimlik haqida gapirib uning mantiqiy asosini ikki tur qarama-qarshiligi tashkil etishini ta'kidlaydi:

a) kontrar qarama-qarshilik;

b) komplementar qarama-qarshilik¹¹.

Ma'lumki, kontrar qarama-qarshilik darajalanuvchi leksema qatoridagi

⁷ Бозоров О. Ўзбек тилида даражаланиш. Монография. Т., Фан. 2023 – В. 102

⁸ Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonov M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: Fan va texnologiya, 2009. – B. 49.

⁹ Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonov M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: Fan va texnologiya, 2009. – B. 47.

¹⁰ Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonov M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: Fan va texnologiya, 2009. – B. 49.

¹¹ Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonov M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: Fan va texnologiya, 2009. – B. 114.

tafovutning farqlarga, farqning ziddiyat, ya'ni qarama-qarshilikka o'sib borishi natijasida birinchi a'zo bilan oxirgi a'zoning antonimlashuvidir. Masalan, *[kichik]* - *[o'rta]*- *[katta]* , *[yosh]*-*[o'smir]* *[o'rta yosh]*-*[qari]*¹² kabi. Draslikda *[kichik]* va *[katta]*, *[yosh]* hamda *[qari]* leksemalari daraja qatorining ikki qarama-qarshi qatori a'zolari o'rtasida ikki antonim a'zo belgilarini o'zida mujassamlashtirgan bog'lovchi bo'g'inligi hamda *[o'rta]* leksemasida *[kichik]* va *[katta]* leksemalarining qarama-qarshiligi so'nishi aytiladi. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, leksemalarning kontrar qarama-qarshiligi darajalanish (graduonimik) qatorda yotar ekan, bu yana bir bor yondosh hodisalarning bir-biriga o'zaro ta'siri va aloqadirligini isbotlasa, komplementar antonimiyada qarama-qarshilik uchinchi, oraliq bo'g'insiz bo'lishi: *[rost]*-*[yolg'on]*, *[arzon]*-*[qimmat]*, *[oson]*-*[qiyin]*¹³ komplementar antonimiyaning darajalanishdan alohida hodisa ekanligini ko'rsatadi. Bu kabi til hodisalaridagi umumiylik va xususiyliklar ularni o'zaro solishtirib bir-biridan farqlash imkoniyatini yaratadi. Maqollar tarkibida antonimlik va darajalanish hodisasiga quyidagicha yondashish mumkin.

Yoy egriligi tufayli shoh yonidan joy olar,

O'q to'g'riligi tufayli uzoqqa borib tushar.

Dushmaningga kimxob kiygiz, *do'stingga* – alak.

Do'sting kelsa dalonda kut, *Dushmaning* kelsa ayvonda kut.

Ushbu maqollardagi ajratib ko'rsatilgan so'zlar o'zaro darajalanishni aks ettirmaydi, faqat qarama-qarshilik xususiyatiga ega leksemalar munosabati (komplementar qarama-qarshilik) asosida shakllangan.

Igna o'g'irlashga jur'at qilgan – *sigir* o'g'irlashga o'tadi; *Ignadek* teshikdan *tuyadek* sovuq kiradi maqollaridagi so'zlar katta-kichik belgisiga ko'ra bir-biriga zid; Kundosh kundoshga *paxta* otadi, Ovsin ovsinga *tosh* otadi – *paxta* va *tosh* so'zlari qattiq-yumshoqlik belgisiga ko'ra; Kundoshlar *kul* otishar, ovsinlar *igna* otishar – bu maqolda esa *kul* va *igna* so'zlari insonga ziyon yetkazish belgisiga

¹² Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonov M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: Fan va texnologiya, 2009. – B. 114.

¹³ Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonov M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: Fan va texnologiya, 2009. – B. 114.

ko'ra; *Ignaning* ishini *nayza* qilolmas – vazifani bajara olish yoki bajara olmaslik nuqtayi nazaridan; *Kuchiga* ishongan – yiqilar, *Aqliga* ishongan – yiqitar maqolida jismoniy va aqliy faoliyat; *Ko'rlikka* chidab bo'ladi, *xo'rlikka* chidab bo'lmaydi maqolida esa inson qadr-qimmatining toptalishi jismoniy ojizlikka nisbatan zid qo'yilgan. Bunda qarama-qarshilikni yuzaga keltiruvchi leksemalar kontekstual antonimlar bo'lib, ular matndan tashqarida o'zaro zidlikni ifodamaydi. Yuqoridagi maqollardan bir xil vazifani turli darajada bajara olish bajara olmaslik belgisiga ko'ra *Ignaning* ishini *nayza* qilolmas maqolidagi *igna* → *nayza* so'zlarida kontekstual antonimlikdan tashqari darajalanish hodisasi kuzatiladi. Qolgan maqollar tarkibidagi leksemalar bundan mustasno.

Xo'tikligida savag'ich taqiladi, *eshak* bo'lganda yuk ortiladi.

Xo'tik – eshakning bolasi; yosh eshak¹⁴. *Eshak* – yakka tuyoqlilarga mansub, quloqlari uzun, sutemizuvchi, otdan kichik ish hayvoni¹⁵. Bu maqol, garchi qo'pol tashbih qilingan bo'lsa ham, bolaga taalluqli. *Xo'tik*ni erkatlab, bo'yniga savag'ichlarni ipga taqib bog'lab qo'yadilar. Yurganda shildiragan tovushidan *xo'tik*ning zavqi kelib, diringlab o'ynay boshlaydi. Katta bo'lganda esa ayamay yuk ortadilar. Ya'ni bolani yoshligida erkatlash, ayash kerak, ammo voyaga yetgach, uning zimmasiga tirikchilik “yuk”ni yuklash lozim. Bunda yoshga qarab qilinadigan munosabat asosida qarama-qarshilik (*xo'tik* ↔ *eshak* –) yuzaga kelgan bo'lsa, bir turdagi hayvon yoshining o'sishi (*xo'tik* → *eshak*) darajalanish hodisasini yuzaga keltirgan. Darajalanish uchun giponomik munosabat asos bo'lgan.

Arslonning o'ligi – *sichqonning* tirigi.

It hurisa, *bulbul* to'xtaydi.

Kaptar bo'lib tug'ilgansan, *Qarg'a* bo'lib o'lma.

Laylakning yurishini qilaman deb, *chumchuqning* chanog'i yirtilibdi.

Maqollardagi ajratib ko'rsatilgan birliklar o'zaro semantik jihatdan

¹⁴ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдди. IV жилд. – Т.: Ўзбекистон нашриоти, 2020. – 438 б.

¹⁵ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдди. V жилд. – Т.: Ўзбекистон нашриоти, 2020. – 63 б.

qarama-qarshilikka kirishgan. Leksemalarning paradigmatick oppositsiyasiga ko'ra mazkur zoonim va fitonimlar qarama-qarshilikni keltirib chiqarmaydi, ammo sintagmatik nuqtayi nazardan, ya'ni ayni matn tarkibida ular orqali ifodalangan ma'no semantik konflikt tusini olgan.

Xalqimiz dunyoqarashiga ko'ra *arslon↔sichqon*, *kaptar↔qarg'a*, *it↔bulbul*, *laylak↔chumchuq* kabi leksemalar turli ma'no qirralari jihatidan nutq talabi bilan o'zaro qarama-qarshi qo'yiladi hamda kontekstual antonimiya hodisasini yuzaga keltiradi. Bunday maqollarda esa doim ham darajalanish hodisasi kuzatilmaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, maqollar anglatgan ma'noda ayrim vaziyatlarda darajalanish bilan bir qatorda lingvistik antonimiya ham kuzatilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. IV жилд. – Т.:Ўзбекистон нашриёти, 2020. – Б. 604.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. V жилд. – Т.: Ўзбекистон нашриёти, 2020. – Б. 591.
3. Бозоров О. Ўзбек тилида даражаланиш. Монография. Т., Фан. 2023 – В. 156
4. Боева, Н. Б. Грамматическая антонимия в современном английском языке [Текст] : дис. ... д-ра филол. наук / Н.Б. Боева.– М., 2001. – 366с.
5. Боровых, Е. А. Антонимическая парадигма в русских и английских поговорках : структурно-семантический и культурологический аспекты [Текст] : автореф. дис. ... канд. филол. наук / Е. А. Боровых. – Челябинск, 2007. – 39 с.
6. Диброва, Е. И. Современный русский язык : теория, анализ языковых единиц [Текст] : учебник : в 2 ч. Ч. 1 / Е. И. Диброва. – 2-е изд. – М. : Академия, 2006. – 223 с.

7. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonov M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: Fan va texnologiya, 2009. – B. 414.
8. Кусова, М. Л. Семантические модели глагольной антонимии [Текст] / М. Л Кусова // Лексическая семантика : сб. науч. статей. – Екатеринбург : УГПУ, 1991. – С. 55
9. Михайлов, В. А. Генезис антонимических оппозиций : (Антонимия и отрицание) [Текст] : учеб. пособие / В. А. Михайлов ; ЛГУ им. А. А. Жданова. – Л. : ЛГУ, 1987. – 79 с.
10. Прекина Н. В. Градуальная семантика русский пословиц [Электронный ресурс]: Дис. ... канд. филол. наук : 10.02.01 .-М.: РГБ, 2006, 169 с.